

“DUNYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG’OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-Avgust, 2026-yil

O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLARNING HUQUQIY POYDEVORI MUSTAHKAMLANDI

Narpay tuman adliya bo‘limi yuridik xizmat ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsulti

Axmatov Boburjon

Mamlakatimiz moliya tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro moliya institutlari tajribasini tatbiq etish hamda aholi va biznes uchun muqobil moliyaviy xizmatlar turini kengaytirish borasida muhim tarixiy qadam tashlandi. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ-1126-sonli Qonuniga muvofiq, mamlakatimiz bank-moliya sektorida islomiy bank faoliyati rasman joriy etilgan edi.

Yangi qonunchilik normalarini amaliyotga samarqli tatbiq etish va islom moliya tamoyillari asosida ishlaydigan muassasalar faoliyatini tartibga solish maqsadida Adliya vazirligi tomonidan 10 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjat davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

Huquqiy mexanizmlar qaysi yo‘nalishlarda takomillashtirildi?

Kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar islomiy bankchilikning o‘ziga xos xususiyatlarini (masalan, foizsiz moliyalashtirish, sheriklik va xatarlarni baham ko‘rish prinsiplarini) inobatga olgan holda bir qator muhim sohalarini qamrab oldi:

1. Tavakkalchiliklarni boshqarish: Banclar va banklar guruhlarida tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi islomiy moliya mahsulotlari xususiyatidan kelib chiqqan holda yangilandi (Raqami: 3427-2).

2. Mulk va ulushlarni sotib olish talablari: Tijorat banklarining ko‘chmas mulk, boshqa mol-mulk hamda yuridik shaxslar ustav kapitalidagi ulushlari (aksiyalari)ni sotib olishi bilan bog‘liq tartib va mezonlar aniqlashtirildi (Raqami: 3441-2).

3. Kredit va moliyalashtirish xatarlarini cheklash: Bir qarz oluvchi yoki o‘zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko‘p miqdorini (limitlarini) belgilash mexanizmlari takomillashtirildi (Raqami: 3283-3).

4. Korporativ boshqaruv: Tijorat banklarida korporativ boshqaruvni islomiy bankchilik standartlariga mos holda tashkil etish tartibi belgilandi (Raqami: 3254-1).

5. Omonatlarni kafolatlash: Banklarning Omonatlarni кафолатлаш jamg‘armasiga badallar

invested qilish va to‘lash tartibiga tegishli aniqliklar kiritildi (Raqami: 3663-1).

Bu nimani anglatadi?

Kiritilgan ushbu qonunchilik o‘zgartirishlari O‘zbekiston moliya bozorida halol va shaffof islomiy bank xizmatlarini ko‘rsatish uchun to‘liq va mustahkam huquqiy bazani yaratib beradi. Bu esa:

- Moliya bozoring jozibadorligini oshiradi;
- Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilishni tezlashtiradi;
- Aholining moliya tizimiga bo‘lgan ishonchini yanada oshirishga hamda muqobil moliya xizmatlaridan erkin foydalanishiga xizmat qiladi.

“DUNYO TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHNING ILG‘OR USULLARI ILMIY JURNALI”

5-Avgust, 2026-yil

Xulosa qilib aytganda, Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilgan ushbu huquqiy islohotlar islomiy bankchilik subyektlarining xavfsiz, shaffof va xalqaro standartlarga mos ravishda faoliyat yuritishiga imkon beradi.